



## VIRTUAL VA REAL IJTIMOIJ BORLIQ O'RTASIDAGI DIALEKTIK MUNOSABATLARNING FALSAFIY TALQINI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20532782>

**Xaydarov Xurshid Xudayqulovich**

*Toshkent davlat agrar universiteti "Ijtimoiy-gumanitar"*

*fanlar kafedrası falsafa fani o'qituvchisi*

*E-mail: xaydarovxurshid782@gmail.com*

*[Tel:+998990092553](tel:+998990092553)*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada virtual va real ijtimoiy borliq o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda ularning dialektik munosabatlari falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanishi natijasida inson faoliyati yangi ijtimoiy makon – virtual muhitda ham amalga oshirilmoqda. Tadqiqotda virtual makonning real ijtimoiy jarayonlarga ta'siri, ularning o'zaro qarama-qarshiligi va bir-birini to'ldiruvchi jihatlari ochib beriladi. Dialektik yondashuv asosida virtual va real borliqning o'zaro aloqadorligi, ularning rivojlanish qonuniyatlari hamda jamiyat taraqqiyotiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari virtual makonning zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va kommunikativ jarayonlarni shakllantirishdagi muhim rolini ko'rsatadi.*

**Kalit so'zlar:** *virtual borliq, real borliq, dialektika, axborot jamiyati, ijtimoiy makon, raqamli kommunikatsiya, ijtimoiy transformatsiya.*

**Аннотация:** *В статье анализируется диалектическая взаимосвязь виртуальной и реальной социальной реальности с философской точки зрения. Развитие современных информационных технологий привело к формированию нового социального пространства — виртуальной среды, в которой активно осуществляется человеческая деятельность. В исследовании раскрываются особенности взаимодействия виртуального и реального социального бытия, их взаимодополняемость и противоречивость. На основе диалектического подхода рассматриваются закономерности их развития и влияние на общественные процессы. Результаты исследования показывают, что виртуальная среда становится важным фактором трансформации современных социальных отношений.*

**Ключевые слова:** *виртуальная реальность, социальная реальность, диалектика, информационное общество, социальное пространство, цифровая коммуникация.*



**Abstract:** *This article analyzes the dialectical relationship between virtual and real social reality from a philosophical perspective. The rapid development of modern information technologies has led to the emergence of a new social space – the virtual environment. Human activities increasingly take place within this digital environment, which significantly influences social processes. The study examines the interaction, contradictions, and complementarity between virtual and real social existence. Based on a dialectical approach, the development patterns and social implications of this relationship are explored. The results indicate that virtual space has become an essential factor in shaping contemporary social relations and communication processes.*

**Keywords:** *virtual reality, social reality, dialectics, information society, digital communication, social transformation.*

## KIRISH

Zamonaviy jamiyat rivojlanishining asosiy xususiyatlaridan biri axborot texnologiyalarining jadal taraqqiyoti bilan bogʻliqdir. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar va sunʼiy intellekt texnologiyalari insoniyat hayotining turli sohalariga chuqur kirib bordi. Natijada inson faoliyatining yangi shakli — virtual ijtimoiy makon shakllandi. Virtual muhit insonlar oʻrtasidagi kommunikatsiya, iqtisodiy faoliyat, taʼlim jarayonlari va madaniy almashinuvni yangi bosqichga olib chiqdi. Shu bilan birga, virtual makon real ijtimoiy borliq bilan murakkab dialektik munosabatlarni yuzaga keltirdi [1].

Amerikalik sotsiolog Manuel Castells axborot jamiyatini “tarmoqlar asosida tashkil topgan jamiyat” sifatida taʼriflab, unda virtual kommunikatsiya tizimi ijtimoiy tuzilmaning muhim elementiga aylanishini taʼkidlaydi [2]. Shu sababli virtual va real borliq oʻrtasidagi munosabatlarni falsafiy jihatdan oʻrganish zamonaviy ijtimoiy

fanlar oldida turgan muhim ilmiy vazifalardan biridir.

### Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot virtual va real ijtimoiy borliq oʻrtasidagi dialektik munosabatlarni falsafiy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan boʻlib, unda zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqot metodologiyasiga tayangan holda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini dialektik yondashuv tashkil etadi. Dialektika voqelikni oʻzaro bogʻliq, uzluksiz rivojlanib boruvchi jarayonlar tizimi sifatida oʻrganishga imkon beradigan universal metodologik tamoyil hisoblanadi. Dialektik yondashuvga koʻra, har qanday ijtimoiy hodisa ichki qarama-qarshiliklar birligi va kurashi orqali rivojlanadi [3].

Ushbu yondashuv tadqiqotga quyidagi jihatlardan ilmiy asos beradi:

Jarayonlilikni hisobga olish: Virtual va real ijtimoiy borliq bir-biridan uzviy ajralmas boʻlib, doimiy oʻzaro taʼsir va transformatsiya jarayonida rivojlanadi. Ichki qarama-qarshiliklarni aniqlash: Har



qanday ijtimoiy hodisa o'z ichida qarama-qarshiliklarni saqlaydi; masalan, virtual makon insonlar o'rtasidagi muloqotni kengaytirsada, ba'zi hollarda ijtimoiy izolyatsiyani kuchaytirishi mumkin [4]. Holatlarning dinamik tahlili: Voqelikni statik holatda emas, balki dinamik rivojlanish jarayonida o'rganish tadqiqotga zamonaviy ijtimoiy tizimlarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi [5].

Tadqiqotda qo'llangan metodlar

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlar kompleks tarzda qo'llanildi:

Dialektik metod virtual va real borliq o'rtasidagi qarama-qarshiliklar va o'zaro ta'sir jarayonlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bu metod yordamida tadqiqot quyidagi jihatlarni tahlil qildi: Virtual borliq va real borliqning ontologik farqlari va ularning ijtimoiy rolini aniqlash;

Qarama-qarshiliklar orqali ijtimoiy jarayonlarning transformatsiyasini kuzatish; Virtual makon orqali shakllanayotgan yangi ijtimoiy strukturani tahlil qilish. Masalan, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, onlayn ta'lim platformalari real ta'lim jarayonlari bilan integratsiyalashib, o'quv jarayonini dinamik tarzda shakllantirmoqda, bu esa dialektik o'zaro ta'sir prinsipini yaqqol namoyon qiladi [6].

Sistemali yondashuv tadqiqotchiga virtual va real ijtimoiy jarayonlarni yagona ijtimoiy tizimning o'zaro bog'liq elementlari sifatida o'rganish imkonini beradi.

Bu yondashuv quyidagi afzalliklarni beradi: Virtual makonning

iqtisodiy, madaniy va kommunikativ funksiyalarini ijtimoiy tizim doirasida tahlil qilish; Raqamli kommunikatsiya platformalari va real ijtimoiy institutlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aniqlash; Jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlar va global axborot makoni o'rtasidagi o'zaro integratsiyani tushunish.

Shu orqali tadqiqot virtual borliqni alohida fenomen sifatida emas, balki ijtimoiy tizimdagi o'zaro bog'liq element sifatida talqin qiladi. Qiyosiy tahlil metodi virtual va real makonning xususiyatlarini solishtirish, ularning ijtimoiy ta'sir mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan [7].

Ushbu metod orqali quyidagilar amalga oshirildi: Virtual borliqning ijtimoiy kommunikatsiya, ta'lim va madaniy jarayonlardagi roli real borliq bilan solishtirildi; Virtual makonning ijtimoiy izolyatsiya yoki integratsiya jarayonlariga ko'rsatadigan ta'siri aniqlash imkoniyati yaratildi; Innovatsion texnologiyalarning ijtimoiy ong va identifikatsiyaga ta'siri qiyosiy tahlil yordamida baholandi.

Falsafiy tahlil metodidan foydalanish virtual reallik fenomenining ontologik, gnoseologik va ijtimoiy jihatlarni chuqur o'rganishga imkon berdi. Bu metod quyidagi ilmiy vazifalarni bajaradi:

Borliq kategoriyasining zamonaviy talqini va virtual borliqning ontologik mohiyatini aniqlash; virtual makon va real ijtimoiy borliq o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni tahlil qilish; axborot falsafasi asosida virtual borliqni ijtimoiy-madaniy



fenomen sifatida talqin qilish. analiz, sintez, induksiya va deduksiya metodlari

Tadqiqot jarayonida umumilmiy ilmiy metodlardan ham foydalanildi.

Analiz metodi yordamida virtual va real ijtimoiy borliqning alohida jihatlari tahlil qilindi; sintez metodi orqali ushbu elementlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlanib, umumiy nazariy xulosalar chiqarildi;

Metodologik jihatdan tadqiqot dialektik materializm tamoyillariga tayangan holda olib borildi. Bu yondashuv voqelikni o'zaro bog'liq va rivojlanib boruvchi jarayonlar tizimi sifatida o'rganishga imkon beradi. Dialektik materializmga ko'ra, ijtimoiy borliq inson faoliyati va tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanadi. Shu sababli virtual makon ham jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichida vujudga kelgan ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilindi [8]. Natijada, qo'llanilgan metodologik yondashuvlar virtual va real ijtimoiy borliq o'rtasidagi murakkab dialektik munosabatlarni tizimli, qiyosiy va falsafiy jihatdan o'rganishga imkon berdi hamda zamonaviy axborot jamiyati sharoitida yuzaga kelayotgan ijtimoiy jarayonlarni ilmiy asosda talqin qilish imkonini yaratdi.

Falsafada borliq tushunchasi mavjudlikning barcha shakllarini ifodalaydi. An'anaviy yondashuvlarga ko'ra, borliq tabiat, jamiyat va ong bilan bog'liq bo'lib, u tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy shakllarga ajratiladi [9]. So'nggi o'n yilliklarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi

natijasida borliq kategoriyasining yangi shakli — virtual borliq ilmiy va ijtimoiy muomalaga kirib keldi. Virtual makon raqamli axborot muhitida mavjud bo'lib, unda insonlarning kommunikativ, madaniy va iqtisodiy faoliyati amalga oshadi. Real borliq O'zbekistonda ijtimoiy institutlar, siyosiy tizimlar, madaniy va iqtisodiy jarayonlar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, davlat ta'lim tizimi, jamoat tashkilotlari va mahalliy madaniy markazlar real ijtimoiy borliqning strukturaviy shakllari hisoblanadi. Uning asosiy xususiyati — moddiy asosga ega bo'lishi va bevosita tajriba orqali idrok etilishi, shuningdek, tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanishidir.

Virtual borliq esa internet platformalari, raqamli ta'lim resurslari va ijtimoiy tarmoqlar orqali yaratilgan sun'iy muhitdir. Masalan, O'zbekiston yoshlarining 70% dan ortig'i ijtimoiy tarmoqlar orqali kommunikatsiya qiladi, bu esa real hayotdagi ijtimoiy jarayonlarni raqamli muhit bilan bog'laydi. Shu sababli virtual makon real borliqning yangi shakli sifatida faoliyat yuritadi. Luciano Floridi virtual makonni "informatsion ekotizim" sifatida talqin qilib, zamonaviy jamiyatda inson faoliyati tobora ko'proq informatsion muhit bilan integratsiyalashib borishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, Jean Baudrillard virtual makonning simulyatsion xususiyatini ta'kidlab, uning real voqelikni aks ettirish bilan birga ba'zan uning o'rnini egallashini qayd etadi. O'zbekiston kontekstida bu



fenomen yoshlar orasida onlayn ta'lim, raqamli hamjamiyatlar va ijtimoiy tashabbuslar orqali sezilarli. Masalan, virtual makon orqali talabalarning ilmiy loyihalari, startap g'oyalari va jamoaviy tashabbuslari shakllanmoqda. Bu esa virtual va real borliq o'rtasidagi dialektik integratsiyaning amaliy misoli bo'lib xizmat qiladi.

Dialektik yondashuvga ko'ra, virtual va real borliq o'rtasidagi munosabatlar qarama-qarshilik, o'zaro ta'sir va o'zaro o'tish orqali namoyon bo'ladi: 1. Qarama-qarshilik: Real borliq moddiy va bevosita tajribaga asoslangan bo'lsa, virtual borliq raqamli texnologiyalar orqali yaratilgan sun'iy muhitdir. Masalan, O'zbekistonda onlayn kurslar real ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlaydi, lekin an'anaviy darslar bilan to'liq almashtirmaydi. Bu qarama-qarshilik dialektik nuqtai nazardan ijobiy o'zaro rivojlanishga xizmat qiladi. 2. O'zaro ta'sir: Virtual makon real ijtimoiy jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy tashabbuslari va startap loyihalari ko'pincha Telegram, Instagram va Zoom platformalari orqali boshqariladi. Shu bilan birga, virtual makon siyosiy kompaniyalar, marketing va ta'lim jarayonlarini ham shakllantiradi (Sanaqulov, 2024). 3. O'zaro o'tish: Ko'plab ijtimoiy g'oyalar dastlab virtual muhitda shakllanib, keyinchalik real hayotga ko'chadi. Masalan, O'zbekistondagi yoshlar tomonidan ijtimoiy loyihalar, ekologik tashabbuslar va madaniy kampaniyalar avval Telegram

yoki Facebook orqali targ'ib qilinadi va keyinchalik mahalliy tadbirlar shaklida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, real jarayonlar ham virtual makonda aksini topadi. Natijada, virtual va real borliq zamonaviy O'zbekiston jamiyatida o'zaro bog'liq bo'lgan ikki muhim ontologik makonni tashkil etadi. Ularning dialektik munosabatlari ijtimoiy kommunikatsiya tizimi, ta'lim va yoshlar tashabbuslari orqali o'z ifodasini topadi.

1. Axborot va ilm-fan: Virtual makon ilmiy va ta'limiy resurslarga kirish imkoniyatini kengaytirdi. Raqamli kutubxonalar, onlayn kurslar va ta'lim platformalari O'zbekiston talabalari va tadqiqotchilarining global hamkorlik imkoniyatlarini oshirdi.

2. Ijtimoiy kommunikatsiya va yoshlar: Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasi va madaniy o'zini anglash jarayoniga ta'sir qilmoqda. Onlayn hamjamiyatlar orqali yoshlar o'z fikrlarini global auditoriyaga yetkazmoqda, shuningdek, ijtimoiy tashabbuslarni amalga oshirishda virtual makondan samarali foydalanmoqda.

3. Iqtisodiy faoliyat: Elektron savdo va raqamli xizmatlar O'zbekistonda iqtisodiy faoliyatning yangi shakllarini yaratmoqda. Masalan, yosh tadbirkorlar onlayn platformalar orqali mahsulot va xizmatlarini keng auditoriyaga yetkazib, global bozorda raqobatlashmoqda (Chen, 2024).

4. Muammolar va xavf-xatarlar:

Shu bilan birga, virtual makon bir qator ijtimoiy muammolarni yuzaga keltiradi: axborot manipulyatsiyasi,



kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi va ayrim hollarda ijtimoiy izolyatsiya. Shu sababli virtual makonni tahlil qilishda uning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy oqibatlarini birgalikda o'rganish zarur.

Natijada virtual va real borliq o'rtasidagi dialektik munosabatlarni chuqur o'rganish O'zbekiston kontekstida zamonaviy falsafaning muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu yondashuv jamiyat rivojlanishining yangi qonuniyatlarini aniqlash va axborot jamiyati sharoitida yuzaga kelayotgan ijtimoiy jarayonlarni chuqur anglash imkonini beradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, virtual va real borliq zamonaviy jamiyatning o'zaro bog'liq ikki muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular o'rtasidagi munosabat dialektik xarakterga ega bo'lib, qarama-qarshilik,

o'zaro ta'sir va o'zaro o'tish jarayonlari orqali namoyon bo'ladi. Virtual makon real ijtimoiy jarayonlarning oddiy aks ettirilishi emas, balki ularni shakllantiruvchi muhim omil sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari jamiyatning kommunikatsiya tizimi, iqtisodiy faoliyati va madaniy jarayonlarini tubdan o'zgartirib, yangi ijtimoiy makon — virtual borliqni shakllantirdi.

Shu sababli virtual va real borliq o'rtasidagi dialektik munosabatlarni chuqur o'rganish zamonaviy falsafaning muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masalani kompleks tarzda tadqiq qilish jamiyat rivojlanishining yangi qonuniyatlarini aniqlash hamda axborot jamiyati sharoitida yuzaga kelayotgan ijtimoiy jarayonlarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdiyeva, F. M. (2023). Virtual dunyo va real hayot o'rtasidagi chiziq. Ilm fan taraqqiyotida zamonaviy metodlarning qo'llanilishi.
2. Chen, A. N. K. (2024). Information systems research of immersive technologies — virtual reality, augmented reality, and mixed reality. *Journal of Information Technology Case and Application Research*, 26(3), 256–263. <https://doi.org/10.1080/15228053.2024.2401993>
3. Przhilenskiy, V. I. (2021). The construction of digital reality: intellectual versus social. *RUDN Journal of Philosophy*, 25(4), 668–682. [https://doi.org/10.22363/2313\\_2302\\_2021\\_25\\_4\\_668\\_682](https://doi.org/10.22363/2313_2302_2021_25_4_668_682)
4. Jabar, B. A., Azmi, M., Hernando, G., Moniaga, J. V., & Alpauillivarez, A. A. (2022). The social impact of VR technology on society: A systematic literature review. *Ultimatics: Jurnal Teknik Informatika*, 14(2), 57–62. <https://doi.org/10.31937/ti.v14i2.2778>



5. Sanaqulov, A. N. (2024). Ta'lim tizimida virtual reallikdan foydalanish istiqbollari. Farg'ona davlat universiteti jurnali.
6. Mahkamova, M. O. (2023). Raqamli axborot va virtual borliq. Tadqiqotlar.
7. Tashmuxamedova, D. G. (2024). Virtual tarmoqlar: O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy rolini shakllanish omili sifatida. (Avtoreferat). Ziyonet Kutubxonasi.
8. Kenyon, K., Kinakh, V., & Harrison, J. (2023). Social virtual reality helps to reduce feelings of loneliness and social anxiety during the COVID 19 pandemic. *Scientific Reports*, 13(1), 19282. <https://doi.org/10.1038/s41598-023-46494-1>
9. Tsai, W., & Chistyakova, O. V. (2022). Ethical theoretical reflections on social media: place of the human being in the digital space. *RUDN Journal of Philosophy*, 26(4), 870–881. <https://doi.org/10.22363/2313-2302-2022-26-4-870-881>